

XORAZM YOR-YORLARI VA XALQONA SO'ZNING O'ZIGA XOS IFODASI

Azatova Guliston Norimonovna

Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Xorazm aytimlari sirasiga kiruvchi, nikoh to'y marosimlarida ijro etiladigan yor-yor qo'shiqlaridagi ruhiyat tasvirlarning o'ziga xos sodda, xalqona ifodasi va jonli ijro bilan bog'liq jihatlari, til xususiyatlari, so'zlarning ijrodagi o'rni, poetik xususiyati, maqsad va vazifalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ruhiyat, xalqona ifoda, aytim, sheva, "yor-yor", onomastika, antroponim, toponim, nikoh, marosim, kelin, kuyov, timsol.

Og'zaki ijod namunalaridan biri bo'lgan Xorazm xalq aytimlari o'zining janr xususiyatlari, ijro o'rni, shakl rang-barangligi va xalqona tili bilan ajralib turadi. Xalq aytimlari badiiy matnida xalqimiz madaniyatining qadimiy ildizlari aks etadi. Ayniqsa, nikoh to'yi marosim qo'shiqlarida xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, sheva va ijrochilik mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. Nikoh to'y marosimlarida muhim o'rin tutgan yor-yor janri ham, xuddi shu jihatlari bilan o'ziga xosdir. Qolaversa, yor-yor janri ijro o'rni, usullari, ishtirokchi va ijrochilarning tarkibiga ko'ra xilma-xildir. Respublikamizning turli viloyatlarida ham ularning o'ziga xos tarzda ijrolari mavjud. Yor-yor qo'shiqlarida xalqona ruhning, xalqona so'zning ifodalanishi, mahalliy farqlanishi, misralarda aks etgan sheva unsurlari orqali ko'zga tashlanadi.

Oq o'jog'lor qurilsin,
Oyvoningdo yor-yor.
O'g'il-qizing o'ynoshin,
Har yoningdo yor-yor.

Bargan sig'ir, qo'yingiz,
Oriq akan yor-yor.
Galin tushgan uyingiz,
Yoriq akan yor-yor.⁴⁶

Ushbu "Yor-yor"da adabiy tildan turli jihatdan farqlanuvchi sheva elementlari aks etgan. Qo'shiq Xorazm hududining asosiy xalq jonli tili isoblangan o'g'uz lahjasidadir.

⁴⁶ Ushbu yor-yor Shovot tumanida yashovchi 1958-yilda tug'ilgan Dushamova Dilbar og'zidan yozib olindi

Misralardagi o'jog', sig'ir, oyvon, galin, bargan, akan kabi birliklar adabiy tildan fonetik belgilariga ko'ra farqlanadi. O'g'uz lahjasi Xorazm vohasining asosan Xiva, Urganch, Qo'shko'pir, Xonqa, Bog'ot, Hazorasp, Yangiariq, Shovot, Tuproqqal'a tumanlari, Xiva, Urganch shaharlarining aksariyat aholisi tomonidan jonli muloqotda qo'llaniladigan sheva tarmog'idir. Bundan tashqari, Xorazm hududida qipchoq lahjasi ham faol iste'molda bo'lib, bular asosan Yangibozor va Gurlan tumanlarida to'liq, qolgan tumanlarning ayrim kam sonli aholisi tomonidan muloqotda qo'llaniladi. Xorazm qipchoq lahjasi leksik jihatdan o'g'uz lahjasi bilan yaqinlikka ega bo'lsa ham, fonetik va morfologik jihatdan tubdan farq qiladi. Xususan yuqoridagi so'zlar qipchoq lahjasida o'choq, siyir, kelin tarzida qo'llanadi:

O'choqqa o't yoqqonda,
Eslang dedim yor-yor
Bir siyirg'o sotdingiz,
Kelin bo'ldim yor-yor.⁴⁷

Xorazm folklorining go'zal namunalari hisoblangan "Yor-yor"larda onomastik birliklarga ham keng o'rin berilgan. Onomastikaning asosiy yo'nalishlari: toponim, antroponim, gidronim, zoonimlar yor-yorlarda ma'noviy aniqlik va ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llanilgan.

Masalan:

Yusuf bilan **Zulayho** yor adilar yor-yor,
Bir-birini go'rmaka zor adilar yor-yor.
Zulayho ham Yusufg'a ma'shuq adi yor-yor,
Layli bilan **Majnundin** oshig' adi yor-yor.⁴⁸

Ushbu misrada badiiy adabiyotda chin sevgi-muhabbat timsoli sifatida keladigan Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun nomlari badiiy estetik bo'yoqni oshirish maqsadida foydalanilgan. Bunday nomlarni Xorazm qipchoq lahjasi namunalari ham uchratish mumkin:

Hasan-Ho'sin ullarning
Enasi bo'l yor-yor
Qizlaringom qo'sh bo'lsin,
Polmo-Zuvra yor-yor.⁴⁹

O'zbek xalqida farzand eng buyuk ne'mat sifatida qaraladi. Turmush qurayotgan ikki yoshga ko'p farzand, ayniqsa, qo'sh farzand tilash ularga bildiriladigan eng yaxshi tilaklardir. Egizak farzandlarga qo'yiladigan Hasan-

⁴⁷ Ushbu yor-yor Yangibozor tumanida yashovchi 1954-yilda tug'ilgan Sobirova To'xtajon og'zidan yozib olindi

⁴⁸ Ushbu yor-yor Urganch tumanida yashovchi 1952-yilda tug'ilgan Egamova Bikajon og'zidan yozib olindi

⁴⁹ Ushbu yor-yor Gurlan tumanida yashovchi 1950-yilda tug'ilgan Karimova Ullijon og'zidan yozib olindi

Husan, Fotima-Zuhra ismlari o'zbek xalq ismlari lug'atida eng salmoqdor antroponimlar hisoblanadi.

Toponimlar folklor namunalarining salmoqli unsuri hisoblanib, yor-yorlar ham o'z navbatida bunday birliklarni chetlab o'tmaydi:

Xivosining yo'lino,
Ko'zlarim zor yor-yor
Qizim getib boradi,
Chekdim ozor yor-yor.⁵⁰

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yor-yorlarda insonning ichki kechinmalari, hayajon va his-tuyg'ularini o'ziga xos tarzda ifodalanishi real hayotiy jarayonlar va sheva so'zlarning, leksik birliklarning o'z o'rnida qo'llanilishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, yor-yor qo'shiqlaridagi bosh maqsad sodir bo'lgan hayotiy voqeani emas, balki shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlar ekanligini kuzatishimiz mumkin. Folklorshunos O.Madayev ta'kidlaganidek, "...lirik asarlarda voqea bayonini nisbiy tushunish lozim...".⁵¹

Sheva so'zlar esa, qo'shiqlardagi nisbiy tushunchalarni yanada yaqqolroq aksettirishga xizmat qiladi. Qolaversa, o'ziga xos ohangdorlik kasb etadi.

Shevaga oid belgilar ba'zan joy nomlari bilan ham ifodalanadi. Biroq joy nomlarini har doim ham faqat mazkur joyning o'zigagina aloqador deb qabul qilish o'rinli bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.:
2. .Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: "Sharq", 2010.
3. Musaqulov A., Mirzayev T. Ostonasi tillodan: To'y qo'shiqlari. –T.: Fan. 1992.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008.
5. T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi, Toshkent-2008

⁵⁰ Ushbu yor-yor Shovot tumanida yashovchi 1959-yilda tug'ilgan Matyakubova Rohatjon og'zidan yozib olindi

⁵¹ Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: "Sharq", 2010